



“TURKIY DUNYO IQTISODIYOTIDA INTEGRATSIYA VA TAFOVUTLAR: ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR VA MILLIY STRATEGIYALAR”

Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University

Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

yo ‘nalishi 1 - bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda Turkiy dunyo tushinchasining bugungi kundagi o‘rnini va Turkiy dunyoning birlashuvi, uning istiqbollari va kelajakdagi birlik yo‘li muhokama qilinadi. Bugungi mustaqil Turkiy davlatlar jumladan, Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Ozarbayjonning iqtisodiy modellari ko‘rib chiqiladi. Turkiy dunyo deb ataluvchi geosiyosiy makon — Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon kabi davlatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davlatlar tarix, til va madaniyatda umumiy ildizlarga ega bo‘lsalar-da, ularning iqtisodiy taraqqiyot darajalari, resurs bazasi va tashqi iqtisodiy aloqalari keskin farq qiladi. Bugungi global iqtisodiy muhitda bu davlatlarning iqtisodiy integratsiyasi ko‘p tomonlama manfaatlar keltirishi mumkin. Ushbu tezisda har bir davlatning iqtisodiy salohiyati, asosiy tarmoqlari, tashqi aloqalari alohida tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: Turkiy dunyo, Tarixiy ildiz, madaniy meros, til birligi, iqtisodiy model, integratsiyaga.

KIRISH

“Turkiy dunyo” degan tushuncha va iboraning so‘nggi yillarda tez-tez qulopqa chalinishiga bir necha muhim sabablar va omillar bor. Bu tushuncha avval ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ayniqsa so‘nggi 10–15 yil ichida geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada faol targ‘ib etila boshladi. Lekin Turkiy davlatlar o‘rtasida iqtisodiy jihatdan sezilarli tafovutlar mavjud. Turkiya va Qozog‘iston eng yirik iqtisodiyotlarga ega bo‘lib, ishlab chiqarish va eksport salohiyati yuqori. O‘zbekiston va Ozarbayjon so‘nggi yillarda islohotlar va integratsiyaga yo‘naltirilgan siyosat yuritmoqda. Turkmaniston esa tabiiy resurslarga ega bo‘lsa-da, yopiq siyosat uni mintaqaviy jarayonlardan chetda qoldirgan. Qirg‘iziston esa kichik, lekin ochiq iqtisodiy tizimga ega bo‘lib, xizmat ko‘rsatish va migratsiya resurslariga tayanmoqda.

Shuni ham aytish kerakki, hozirgi mustaqil Turkiy davlatlar bundan deyarli **35** yil avval Sobiq Ittifoq davrining qulashi bilan o‘z suvirinetetiga erishgan. Shuning uchun ham ko‘plab muammolar va to‘siqlar rivojlanish pallasiga yaxshigina g‘ov bo‘ldi.



Turkiy dunyo deb ataluvchi geosiyosiy makon — Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon kabi davlatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davlatlar tarix, til va madaniyatda umumiy ildizlarga ega bo‘lsalar-da, ularning iqtisodiy taraqqiyot darajalari, resurs bazasi va tashqi iqtisodiy aloqalari keskin farq qiladi. Bugungi global iqtisodiy muhitda bu davlatlarning iqtisodiy integratsiyasi ko‘p tomonlama manfaatlar keltirishi mumkin. Ushbu tezisda har bir davlatning iqtisodiy salohiyati, asosiy tarmoqlari, tashqi aloqalari va raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni alohida tahlil qilinadi.

1. Turkiya - Turkiy dunyoning yetakchi iqtisodiyoti YaIM (2024): Taxminan 1 trillion AQSh dollari.

- Asosiy tarmoqlar: Sanoat (avtomobil, maishiy texnika, tekstil), xizmatlar, turizm, mudofaa sanoati.
- Raqamli salohiyat: Fintech, e-commerce, startaplar rivojlangan (TrendYol, Getir kabi kompaniyalar).
- Tashqi iqtisodiy aloqalar: Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Yaqin Sharq.

2. Qozog‘iston - Resurslarga boy va logistika markazi YaIM (2024): 250 milliard AQSh dollari.

- Asosiy tarmoqlar: Neft-gaz, metallurgiya, don ekini eksporti, logistika.
- Tashqi aloqalar: Xitoy, Rossiya, Yevropa. “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusida muhim o‘rin tutadi.

3. O‘zbekiston: Islohotlar yo‘liga o‘tgan o‘sib borayotgan iqtisodiyot

YaIM (2024): 90–100 milliard AQSh dollari.

• Asosiy tarmoqlar: Qishloq xo‘jaligi, tekstil, oltin, avtomobil sanoati (GM Uzbekistan)

• Tashqi aloqalar: Xitoy, Rossiya, Turkiya, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan ehtiyyotkor hamkorlik.

• Raqamli iqtisodiyot: IT Park, raqamli xizmatlar (my.gov.uz), startaplar uchun imkoniyatlar kengaymoqda.

4. Ozarbayjon - Neft-gaz bilan qo‘llab-quvvatlangan rivojlanish modeli

YaIM (2024): 80 milliard AQSh dollari.

• Asosiy tarmoqlar: Neft-gaz (SOCAR), qurilish, transport-logistika (BTK temiryo‘li).

• Tashqi aloqalar: Turkiya, Yevropa, Xitoy.

• Raqamli rivojlanish: "Raqamli Ozarbayjon" dasturi joriy etilgan.

5. Turkmaniston: Yopiq iqtisodiyot, ammo katta gaz salohiyati

YaIM (rasmiy): 50–60 milliard AQSh dollari (haqiqiy ko‘rsatkichlar muhokamali).

• Asosiy tarmoqlar: Gaz eksporti (Xitoyga TAPI loyihasi), paxta, kimyo sanoati.

• Tashqi aloqalar: Xitoy, Eron, Afg‘oniston.

• Raqamli rivojlanish: Juda cheklangan, internet va texnologiyalarga kirish muammoli.



6. Qirg‘iziston: Erkin iqtisodiy tizim va migratsiyaga tayangan iqtisodiyot YaIM (2024): 12 milliard AQSh dolları.

- Asosiy tarmoqlar: Qishloq xo‘jaligi, oltin (Kumtor koni), xizmat ko‘rsatish.
- Raqamlı rivojlanish: Kichik startaplar, elektron to‘lov xizmatlari rivojlanmoqda.
- Tashqi aloqlar: Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Xitoy.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI (TDT)

Bu - turkiy tilli davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni kuchaytirish maqsadida tuzilgan xalqaro tashkilotdir.

Tashkil topgan sana:

3-oktyabr 2009-yil, Naxichevan shartnomasi asosida (Ilgari “Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi” deb nomlangan).

2021-yildan: “Turkiy Davlatlar Tashkiloti” deb atala boshlandi.

A’zo davlatlar:

1. O‘zbekiston
2. Turkiya
3. Qozog‘iston
4. Qirg‘iziston
5. Ozarbayjon

Kuzatuvchi davlatlar:

- Turkmaniston
- Vengriya (turkiy ildizlarga mansub deb e’tirof qilinadi)
- Kuzatuvchi maqomini olish istagida boshqa davlatlar ham bor (masalan, Shimoliy Kipr Turk Respublikasi)

Tashkilot maqsadlari:

- A’zo davlatlar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash
- Transport va energetika loyihalarini muvofiqlashtirish
- Madaniyat, ta’lim, sport, turizm sohalarida integratsiyani kuchaytirish
- Xalqaro maydonda turkiy dunyo manfaatlarini himoya qilish

Muvofiqlashtiruvchi organlar:

- Bosh kotibiyat – Istanbul (TDT markazi)
- Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi – Boku
- Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyası (TURKPA) – Boku
- Turkiy akademiya – Nursulton
- Turkiy investitsiya jamg‘armasi – 2023 yilda tashkil etilgan.

Muhim tashabbuslar va loyihalar:

- Turon yo‘lagi – Transkaspiy transport yo‘nalishini rivojlantirish
- O‘zaro savdoni soddalashtirish, bojxona tartiblarini muvofiqlashtirish



- Yagona vizaviy rejim (turistik va biznes sohalarida)
- Yoshlar almashinuvi dasturlari
- Turkiy universitetlar ittifoqi — talabalar almashinuvi

XULOSA: Turkiy Davlatlar Tashkiloti — bu turkiy xalqlarni siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan birlashtiruvchi zamonaviy platforma bo‘lib, u kelajakda yangi ittifoqlar va quadratli iqtisodiy bloklarga asos bo‘ladi. O‘zbekiston 2019-yilda TDTga a’zo bo‘ldi. Shundan beri tashabbuskor va faol ishtirokchi bo‘lib, Transport-logistika loyihalari (Afrosiyob – Toshkent – Xiva – Kaspiy yo‘li), Ta’lim, raqamli texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi sohalarida integratsiya, Madaniy merosni targ‘ib qilish masalalariga urg‘u qaratmoqda. Madaniy aloqalarga misol olsak, yaqinda O‘zbekiston va Turkiya hamkorligida madaniyat sohasida yangi O‘zbek va Turk seriali ishlab chiqarildi. “Mendirman Jaloliddin” seriali Buyuk bobomiz, sarkarda Jaloliddin Manuguberdi hayotini hikoya qiladi. Serialni ko‘rish asnosida Buyuk Xorazmshohlar davlati va uning salohiyatlari keng ohib berilgan. Ushbu serial Turkiya va O‘zbekistonda juda iliq kutib olindi. Yaqin kunlarda esa O‘zbekiston va Turkmaniston Kinomatografiyalari hamkorligidagi “Maxtumquli” nomli badiiy film tamoshabinlarga havola qilindi. Shu va shunga o‘xshash qator hamkorliklar Turkiy dunyoning madaniy aloqalarining jadallahishiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turkiy davlatlar tashkiloti rasmiy sayti
→ <https://www.turkkon.org> (<https://www.turkkon.org/>)
(Tashkilotning tuzilmasi, maqsadlari, a’zolari, dasturlari va rasmiy hujjatlari)
2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
→ <https://mfa.uz> ([https://mfa.uz/](https://mfa.uz))
(Tashqi siyosiy hamkorlik va O‘zbekistonning TDTdagi o‘rni)
3. Hasanov A.X. “Turkiy davlatlar hamkorligi: tarixiy va zamonaviy jarayonlar”, Toshkent, 2022.
(Akademik yondashuvda TDT va turkiy integratsiya masalalari)
4. Islomov M.B. “Turkiy dunyo integratsiyasi: imkoniyatlar va strategik yondashuvlar”, “Yangi O‘zbekiston” jurnali, 2023, №3.
5. “Turkiy dunyo: tarix, til, madaniyat va hamkorlik” – O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy to‘plami, 2022-yil.
6. “Turkiy integratsiya – global geosiyosiy jarayonlarda yangi kuch markazi”, “Jahon siyosati” jurnali, 2021, №4.
7. Begench Karayev. “The Rise of Turkic Council: Regionalism and Shared Identity”, Central Asian Affairs, 2020.
8. “Turkic World in the 21st Century”, ed. by N. G. Ar